

JANGOVAR RUHNI OSHIRISHGA BUYUK AJDODLARIMIZNI QO'SHGAN
HISSASI

Mirzaakbarov Baxrom Turamirzayevich

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik va muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi tahlikali zamonda dolzarb masalaga aylangan jangovar ruhni oshirish muammosi va uning yechimi sifatida shonli tariximizga muhrlangan buyuk ajdodlarmizning qo'shgan ulkan hissalarini chuqur o'rganish va armiyamiz tayanchi hisoblangan yosh kadrlarga munosib tarzda yetkazish yuzasidan fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Jangovar ruh, axloqiy-ruhiy holat, favj, yosol, barong'or, hirovul, hisor, barkas, sipoh.*

"G'alaba taqdirini avvalo qo'shinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi".

Amir Temur

Jahonning bir qator mamlakatlarida yuz berayotgan tashvishli holatlar o'nglab bo'lmaydigan darajada salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi, eng achinarlisi, bugun ayrim davlatlarda sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarda harbiy xizmatchilarda milliy g'urur, jangovar ruh va mafkuraviy immunitet shakllanmagani oqibatida harbiylarning o'z quollarini topshirib, dushmanga taslim bo'lishi, isyonchilarga qo'shib ketishi hamda jangovar vazifani bajarmaslik holatlari ommaviy tus olmoqda.

Bunday sharoitda harbiy xizmatchilar ongiga betakror Vatanimiz yagonaligini, milliy mustaqilligimizni asrash, har qanday tajovuzga qarshi mardonavor kurashish, yurt himoyachisi nomini sharaf bilan oqlashni chuqur singdirish - Qurolli Kuchlarda yuqori jangovar shaylik, barqaror axloqiy-ruhiy holat hamda shaxsiy tarkibning g'alabaga bo'lgan mustahkam ishonchini ta'minlashning eng muhim shartidir [1].

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev: "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi. Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz", deb ta'kidlaganida, tinchliksevar, yurtparvar xalqimizning mardlik, fidoyilik bobida ko'rsatgan jasorat namunasini nazarda tutgan.

Qo'shinlarning jangovar ruhini oshirish hamda harbiy xizmatchilarda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning asosi bo'lib buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir

Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, ularning qo'shinlaridagi lashkarboshilarning sadoqati, fidoyiligi va matonati xizmat qiladi.

Zero milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!" degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish vaqti keldi[2].

Kelinglar shu o'rinda buyuk sarkardalarimiz va ajdodlarimizning vatanparvarlik, jang olib borish taktikasi va askarlarning jangovar ruhini ko'tarishiga oid ayrim ma'lumotlarga to'htalib o'tsak.

Shayx Najmiddin Kubro jasorati. 1221 yilning yozida Chingizxon lashkarlari Urganch qal'asini o'rab olgan. Najmiddin Kubro lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlasidan saqlab turgani tarixdan bizga ma'lum. Chingizxon Najmiddin Kubroning xalq orasidagi yuksak mavqeidan xabar topib, unga chopar yuborgan va tirik qolishi uchun shaharni tark etishini so'ragan. Ammo shayx unga javoban: "Men yetmish yil umrim davomida Xorazm xalqi bilan turmushning achchiq-chuchigini birga totganman. Endi ularni boshiga balo-qazolar yog'ilayotgan paytda o'zimni chetga olsam, muruvvatdan bo'lmaydi", deb Chingizxon taklifini rad etgan. Bu voqea uning naqadar fidoyi, xalqparvar va vatanparvar inson bo'lganidan darak bersa-da, harbiy psixologik jihatdan yov va uning da'vatining kuchiga tushmasdan, irodaviy sifatleri kuchli ifodalanganligi namoyish etib, jasoratli xulq, namunasini ko'rsatgan.

Jasorat hulq namunasi sifatida Najmiddin Kubro o'z shogirdlari bilan jangga kirgan paytda, shogirdlar va boshqa jangchilar uchun turtki funksiyasini bajargan. Tarixiy manbalarda "Bir o'q kelib shayxning ko'kragiga tegadi. Qablarni nurlantirgan yetmish besh yashar shayxi Kabir ilohiy ilhomdan fayz topadi. Holdan toyib, kuchi ketayotganini sezsa ham, jangni to'xtaymay, dushman bayrog'ini qo'lga tutib, shu holatda jon beradi. Rivoyat qilishlaricha, shayx Kubro vafotlaridan keyin bayroqni uning mahkam qisilgan panjalaridan o'n chog'li odam zo'rg'a ajratib olgan". Bu voqeadan ko'rinib turibdi, jasorat xulq namunasi sifatida individual va guruh tarzda namoyon bo'lishi mumkin, bu kabi harbiy-tarixiy voqealardan shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan axloqiy-ruhiy ta'minot amaliyotida ma'rifiy manba tarzida foydalanish tavsiya etiladi.

Jaloliddin Manguberding mardligi. Jaloliddin Manguberding zafarli hujumlariga nisbatan mo'g'ul qo'shining kuchli lashkarboshilari qarshilik ko'rsata olmagan. Natijada Chingizxonning shaxsan o'zi jangga kirishgan. Mo'g'ul bosqinchilari bilan 12 ta jangda g'alaba qozongan Jaloliddin Manguberdi 1221-yilning noyabr oyida Hind daryosi bo'yida bo'lib o'tgan o'n uchinchi jangda mag'lubiyatga uchragan. Mag'lubiyatning sababi - lashkarboshilari orasida yuzaga kelgan o'zaro kelishmovchilik va nizolar edi. Chingizxon Jaloliddin Manguberding jasoratidan

hayratlanib, o'z o'g'illariga: "Ota-o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!" degani manbalarda qayd etilgan. O'z davrida "Sherlar ichra eng zo'r sher" degan nomga sazovor bo'lgan Jaloliddin Manguberdi ham o'z yurtining ozodligi va mustaqilligini saqlab qolish yo'lida 11 yil mo'g'ul bosqinchilari bilan to'htovsiz jang qilib, mislsiz matonat ko'rsatgan. U yurt ozodligi uchun kurashdan hech qachon voz kechmagan[3].

Temur Malik jasorati. Asli turk bo'lgan Temur Malik baxodir, qo'rqmas avvalroq u Sayxun o'rtasidagi – daryo ikki ajralib oqadigan yerdagi baland qal'a (hisor)ni mustahkamlab u yerga mingta tajribali jangchilari bilan o'rnashadi. Dushman qo'shini yaqinlashib, bir hamla bilan qal'ani ololmaydi, chunki ular otgan o'q va manjaniq toshlari qal'agacha yetib kelmaydi. Shundan keyin mo'g'ullar bosib olgan shahar va qishloqlar aholisi, O'tror, shuningdek Xo'jandning yosh yalanglaridan jami 50 ming kishini haydab keltiradilar, mo'g'ullarning o'zlari 20 ming nafar edi. Ularning barchasi o'nlik va yuzliklarga ajartiladi. Tojiklardan tashkil topgan har bir o'nlik tepasiga bir bosh qilib qo'yiladi. Ular shahardan uch farsah olisdagi tog'dan piyoda tosh keltirib, Sayhunga to'ka boshlaydilar. Temur Malik 12 barkas qurdirib, ularning ustini namlangan namat bilan yopgan, uning ustidan uksus qo'shilgan loy bilan suvagan, u yer – bu yerida darchalar qoldirgan. Har kuni u erta tongda turli tomonga oltita mana shu barkaslardan jo'natgan va ular beayov jang qilganlar. Ularga na o'q, na o't, na neft ta'sir qilgan. U mo'g'ullar suvga otgan toshlarni suvdan qirg'oqqa chiqarib tashlar va kechalari mo'g'ullar ustiga qo'qqisdan hamla qilib, ularning tinka-madorini quritardi. Shundan so'ng mo'g'ullar ko'plab o'q va manjaniqlar tayyorlab Temur Malikka qarshi hujumni kuchaytiradilar.

Temur Malik ahvol og'irlashganini ko'rgach, qochish uchun tayyorlab qo'yilgan 70 ta kemaga kechasi yuklarni ortib, jangchilarni joylashtiradi, o'zi esa bir necha bahodir yigitlari bilan barkasga o'tiradi. So'ngra mash'ala yoqib, suvda yashin misoli suzib ketadi. Mo'g'ul qo'shini bundan boxabar bo'lishi bilan daryoning har ikki qirg'og'i bo'ylab ta'qib etib yura boshlaydi. Temur Malik qayerda mo'g'ullar to'dasini ko'rsa, zudlik bilan shu tomonga barkaslarni haydab, ularning ustiga o'q yomg'iri yog'dirib quvib yuboradi. U kemani misli shamoldek haydab Banokatga yetib boradi. Bu yerda u kemalarga to'siq bo'lishi uchun daryoga tortilgan zanjirni bir zarba bilan uzib o'tib, yo'lida davom etadi. U to Jand va Barchinlig'kentga yetguncha qadar ular bilan beto'xtov jang qilib keladi. Jo'chixon Temur Malikdan xabar topgach, lashkarini Sayxunning har ikki qirg'og'idagi bir qancha joylarga joylashtiradi. Ponton ko'prik yasab, unga manjaniqlarni o'rnatadi, qo'ndoqli kamonlarni ishga soladi.

Temur Malik mo'g'ullar qo'ygan tuzoqdan xabar topgach, Barchinlig'kent yonida qirg'oqqa chiqib o'z o'tliq lashkari bilan yo'lida davom etadi, mo'g'ullar uni ta'qib etmoqda edilar. Temur Malik o'g'ruqni oldinga jo'natib o'zi orqada qolib to o'g'ruq uzoqqa ketguncha jang qiladi, so'ng yana ularning orqasidan yo'l oladi.

Bir necha kun mobaynida u shu tarzda kurashadi, uning ko'plab jangchilari halok bo'ladi, mo'g'ul qo'shini esa borgan sari ko'payib boradi. Oxir-oqibatda mo'g'ullar undan O'g'ruqni tortib olishadi, u bir necha kishisi bilan qoladi, shunday bo'lsa ham u

kurashni sabot-matonat bilan davom ettirib, taslim bo'lmaydi. Yonidagi hamrohlari ham halok bo'lgach, unda bor-yo'g'i uchta kamon o'qi qoladi, ularning ham bittasi singan va paykonsiz edi. U paykonsiz o'q bilan ulardan birining ko'zini ko'r qiladi, qolganlariga esa: "Ikkalangiz uchun ikki o'q qoldi. O'qlaringa achinaman. Yaxshisi orqalaringizga qaytib hayotingizni saqlab qoling", deb murojaat qiladi. Mo'g'ullar orqaga qaytadilar, u esa Xorazmga yetib borib yana jangga hozirlik ko'ra boshlaydilar.

Amir Temurning mahorati. Buyuk sarkarda Amir Temur harbiy harakatlar olib borishda qo'shinni saflash va g'anim lashkarini sindirishga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, amr qildimki, dushman urush ochmaguncha o'zlaricha jangga kirmasinlar. Yana amr etdim: dushman jang maydoniga kiringach, lashkar boshlig'i yosolda (qo'shinning urush oldidan saf tortib turishi) turgan to'qqiz sipohiy favj (harbiy bo'linma)ga jangga tushib, urush boshlashlari haqida buyruq bersin, chunki sipoh lashkarboshisining vazifasi, jang vaqtida qo'rquvdan bo'shashib, sarosimaga tushmayin buyruq berishdan iboratdir. Har bir sipoh favjini urush aslahalaridan biri deb deb bilsin va o'q-yoy, oybolta, qilich, gurzi, pichoq va xanjar kabi har bir favjni o'z o'zni kelganda ishlatsin. Ishbilarmon lashkarboshi, o'zini va to'qqiz sipohiy favjlari ustiga ketma-ket urilgan to'qqizta qilich zarbasidan keyin, to'qqizinchi zarbada albatta yengilishiga umid qilsa bo'ladi.

Haqiqiy lashkarboshi avval g'anim ustiga hirovul favjini yuboradi, so'ngra yordam uchun ketadigan barong'or hirovulini jo'natadi. Barong'or hirovulini ketidan esa javong'or hirovulini jangga tashlaydi. Shu tarzda dushman askari ustiga ketma-ket uch zarba tushgan bo'ladi. Bordiyu shu vaqt hirovullar g'animga qarshi kuchsizlik qilsalar, u holda barong'orning birinchi favji ot qo'ysin, ketidan javong'or ikkinchi favjini jangga kiritsin, ketidan javong'orning birinchi favjini yuborsin, ular jangga kiringach, menga xabar jo'natib, keyingi buyruqlarimni kutsin. Shundan so'ng Allohning madadu inoyatiga tayanib, lashkarboshining o'zi ham jangga kirsin. Meni ham urush maydonida hozir deb bilsinkim, Allohning yordami bilan g'animga sakkiz zarba yetgandan keyin, to'qqizinchi zarbada dushman yengilib fathu nusrat nasib bo'ladi.

To'g'ri sardor ulkim, u shoshma-shosharlik qilmay, (avval) lashkarini ishga soladi. Bordiyu lashkarboshining o'zi qilich chopishga majbur bo'lsa, iloji boricha o'zini o'limdan saqlasin, chunki, lakarboshining o'limi o'rduga badnomlik keltirib, g'anim lashkarining g'alabasiga sabab bo'ladi.

Shundan qilib, sardor aqlu tadbikorlik bilan ish yuritib, shoshma-shosharlik qilmasin, chunki shoshqaloqlik shayton ishidir. Chorasi bo'lmagan ishga kirishmasin, chunki undan qutilib bo'lmaydi[4].

Shu bilan buyuk Temur jang maydonini tanlashda ham quyidagi jihatlariga alohida ahamiyat bergan. Jumladan, va buyurdimki, amir ul-umaro urush maydonini tanlashda (quyidagi) to'rt narsani nazarda tutsin.

Birinchisi – u yerning suvga uzoq yaqinligi.

Ikkinchisi – askar saqlaydigan yerning xavfsizligi.

Uchinchisi – g‘anim lashkari turgan yerdan teparoqqa joylashishi va oftobga ro‘paro‘ bo‘lmasligi, toki quyosh shu‘lasi sipohiyalar ko‘zlarini qamashtirmasin.

To‘rtinchisi – urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo‘lishi lozim[5].

XULOSA

yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, shonli tariximizda o‘tgan buyuk ajdodlarimizning boshqa yo‘nalishlar kabi harbiy sohada ham ko‘rsatgan jasoratlarini faxr bilan o‘rgansak va targ‘ib qilsak arziydi. Zero shu orqali bugungi kunda chetdan bizga nazar solib turgan va o‘zlarini salbiy axborot xurujlari orqali ta‘sir qilishga urinayotgan ayrim chalasavod soxta tarixchilarga munosib javob bergan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-sentabrdagi “Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-371-sonli Qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-sonli Qarori.

3. “O‘zbekiston armiyasi” jurnali. 2022-yil, 2-soni - 47,48 b.

4. Faxriddin Hasanov. “Turon xalqlari harbiy san‘ati” - T.: “Yoshlar matbuoti”, 2018. 294-296; 373- 374 b.

5. “Temur tuzuklari” - T.: “O‘zbekiston”, 2019. 147 b.